



## TOSHKENT SHAHAR YANGIHAYOT TUMAN HOKIMI QARORI

2023 - yil 23 - iyun

187-14-220-Q/23

Yangihayot tuman hokimligi

### **Toshkent shahar hokimining 2023-yil 19-iyundagi 381-14-0-Q/23-sonli qarori ijrosi to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 9-fevraldagi "Toshkent shahrining ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini jadal sur'atlarda hal etish hamda aholi farovonligini yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-50-son qaroriga o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida" 2023-yil 1-iyundagi PQ-175-son qarori hamda Toshkent shahar hokimining 2023-yil 19-iyundagi 381-14-0-Q/23-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida,

#### **QAROR QILAMAN:**

1. Toshkent shahar hokimining "Mablag' ajratish to'g'risida" 2023-yil 19-iyundagi 381-14-0-Q/23-sonli qarori ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.
2. Toshkent shahar hokimining ushbu qarori bilan:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi PQ-175-son qarorga asosan Toshkent shahri mahallalaridagi ichki yo'llar, piyodalar yo'laklari, muhandislik-kommunikatsiya obyektlarini ta'mirlash, bolalar hamda sport maydonchalarini qurish, mahalla hududida mikro xiyobonlar tashkil etish, irrigatsiya ishlari, ko'p qavatli uylarning tom va fasad qismlarini ta'mirlash hamda aholi kayfiyati va yashash sifatiga ijobiy ta'sir qiluvchi obodonlashtirish, ta'mirlash va boshqa qurilish ishlari uchun Toshkent shahar mahalliy byudjetiga respublika byudjeti hisobidan 211 mlrd so'm ajratilishi belgilanganligi;

Respublika byudjetidan Toshkent shahar mahalliy byudjetiga ajratilgan mablag' hisobidan Toshkent shahar hokimligiga 211 mlrd (ikki yuz o'n bir milliard) so'm miqdorida mablag' ajratilishi;

Mazkur qarorning ilovasiga muvofiq Yangihayot tuman hokimligiga 10 850

mln.so‘m o‘tkazib berilganligi inobatga olinsin.

3. Tuman hokimining o‘rinbosarlari (X.Tashpulatov, A.Nurmatov), sektor rahbarlari bilan birgalikda:

ajratilgan mablag‘larni o‘rnatilgan tartibda maqsadli sarflanishini ta‘minlash;

ajratilgan mablag‘lar hisobidan amalga oshiriladigan qurilish-ta‘mirlash ishlari bo‘yicha manzilli ro‘yxatlarni o‘rnatilgan tartibda xalq deputatlari tuman Kengash qarorlari bilan tasdiqlash;

shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiquvchi tashkilotlar tomonidan loyiha-smeta hujjatlari, nuqson dalolatnomalarini ishlab chiqish xarajatlari loyiha qiymatining 1 (bir) foizidan, shuningdek, loyiha-smeta hujjatlarini ekspertizadan o‘tkazish xarajatlari 0,2 foizdan oshmagan holda belgilash;

tuman obodonlashtirish boshqarmalari tomonidan olib borilayotgan qurilish-ta‘mirlash ishlarini markazlashtirish va monitoringini olib borish, shuningdek, ish turlari hamda narxlarni to‘g‘ri qo‘llanishini tahlil qilish, bixillashtirish uchun loyiha-smeta hujjatlari, nuqson dalolatnomalarini tayyorlash, ekspertiza o‘tkazish bilan bog‘liq jarayonlar, shuningdek, ajratilgan mablag‘lar hisobidan amalga oshirilgan qurilish ishlarini Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-son qarori talablari asosida nazorat o‘lchovini o‘tkazilishi amalga oshirilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosarlari A.Nurmatov va X.Tashpulatov zimmasiga yuklatilsin.

**Yangihayot tumani hokimi**



**X.Inogamov**